©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

O‘ZBEKISTON VA YEVROPA ITTIFOQI MUNOSABATLARI: AQLIY MARKAZLAR YONDASHUVI ASOSIDA SHAKLLANISHI VA ISTIQBOLLARI

Axmadova Shahnozabonu
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanish jarayoni, hamkorlik aloqalarining rivojlanish bosqichlari hamda hozirgi davrda turli sohalarda olib borilayotgan o‘zaro aloqalar yetakchi mahalliy va xalqaro aqliy markazlar tahliliy materiallari asosida kompleks o‘rganiladi. O‘zbekistonning tashqi siyosiy vektori, Yevropa Ittifoqi bilan integratsion aloqalarni rivojlantirishda turli sohalaridagi hamkorlik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud zaifliklar, jumladan, inson huquqlari va demokratiya bilan bir qatorda global geosiyosiy tahdidlar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: EPCA, PCA, Samarqand sammiti: Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi, RAND korporatsiyasi.

KIRISh Ishonchsizlik inqirozi sharoitida kechayotgan zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy hamkorlik jahon miqyosida barqarorlikni ta’minlash, izchil taraqqiyotga erishish hamda o‘zaro manfaatli rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mintaqasi o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashib, yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Aqliy markazlar tahlillariga ko‘ra, O‘zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyoda eng faol islohotchi davlatlardan biri sifatida Yevropa Ittifoqi uchun muhim hamkor sifatida ko‘rilmoqda (hisoblanmoqda). XX asrning 90-yillarida shakllangan Yevropa Ittifoqi integratsiya g‘oyalari asosida Yevropaning 27 mamlakatini birlashtirgan eng yirik mintaqaviy tuzilma sifatida maydonga chiqdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalarni qamrab olgan hamkorlik aloqalari izchil ravishda rivojlana boshladi. Ushbu jarayonda qo‘shma muloqot maydonlari shakllantirilib, zamonaviy global va mintaqaviy muammolarni hal etishga qaratilgan qo‘shma yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar Sovet Ittifoqi parchalangandan so‘ng yo‘lga qo‘yildi. Mazkur hamkorlik savdo-iqtisodiy aloqalar, siyosiy muloqot, ta’lim hamda ijtimoiy-gumanitar sohalarda hamkorlik ko‘lamining kengayib borishi bilan tavsiflanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Mazkur tadqiqot mahalliy va xalqaro aqliy markazlar tomonidan e’lon qilingan tahliliy hisobotlar va strategik hujjatlar asosida olib borildi. Xususan Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti ekspertlari O‘zbekiston tashqi siyosatini ko‘p vektorli va muvozanatlashgan model sifatida baholab, YI bilan hamkorlikni strategik yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi[1]. Shu bilan bir qatorda Yevropa siyosatini o‘rganish markazi tadqiqotlari YI ning Markaziy Osiyodagi siyosatini tahlil qilib, energetika xavfsizligi, transport-logistika tizimlari va barqaror rivojlanish asosiy ustuvor yo‘nalishlar ekanini ta’kidlaydi.

RAND korporatsiyasi tahlillarida esa global geosiyosiy raqobat sharoitida Markaziy Osiyoning strategik ahamiyati, xususan O‘zbekistonning muvozanatlashgan tashqi siyosati alohida ta’kidlanadi[2].

Aqliy markazlar bilan bir qatorda, mazkur munosabatlar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ham chuqur tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan mahalliy olimlardan biri, xalqaro huquq bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Xaydarali Yunusov hisoblanadi. Xaydarali Yunusov o‘zining Yevropa ittifoqi huquqi (Yevropa Ittifoqi va hamjamiyatlari huquqi) kitobida O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi munosabatlari uchun alohida bob ajratgan. Ushbu asarda O‘zbekiston mustaqilligidan oldingi davrlardagi Yevropa bilan olib borilgan hamkorlik, xususan, Temuriylar va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi munosabatlardan tortib, mustaqillik yillarida yo‘lga qo‘yilgan izchil aloqalar va imzolangan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi istiqbolli shartnomalargacha so‘z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda muallifning quyidagi fikrlari ham katta ahamiyat kasb etadi. “Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar keng istiqbollarga ega. Teng manfaatli o‘zaro aloqalarning cheksiz imkoniyatlari asta-sekinlik bilan ro‘yobga chiqib kelmoqda. Endigina oyoqqa turgan o‘zaro aloqalar yaqin kelajakda o‘zining kutilgan samaralarini berishi tabiiy”[3].

Bundan tashqari, tadqiqotchining “Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston munosabatlarining institutsional asoslari” nomli maqolasida Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikning mintaqaviy xavfsizlik, asosan Afg‘oniston muammosi yuzasidan olib borgan sa’y harakatlari haqida ham alohida so‘z yuritiladi. Shuningdek olim quyidagi yondashuvni ilgari surdi: “Bu munosabatlar yillar davomida sezilarli darajada rivojlanib, tomonlar o‘rtasidagi umumiy qadriyatlar, iqtisodiy manfaatlar va xavfsizlik sohasidagi yaqinlikni namoyon etdi”[4]. Markaziy Osiyo, xavfsizlik va Yevropa Ittifoqining tashqi siyosati sohalarida tadqiqotlar olib borgan britaniyalik siyosatshunos va xalqaro munosabatlar eksperti Neil Jon Melvin o‘z maqolasida Yevropa Ittifoqi (YI) va Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirish strategiyasiga bag‘ishlangan. Muallif YIning mintaqaga nisbatan siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarini tahlil qiladi, YI Strategiyasining maqsadi — mintaqada barqarorlikni saqlashdan tashqari, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish ekanini ta’kidlaydi[5]. Germaniyalik siyosatshunos, xalqaro munosabatlar bo‘yicha tadqiqotchi va professor Suzanna Hennik tomonidan yozilgan “Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo munosabatlari: kuchliroq hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar” nomli maqolasida Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi yangi strategiyani muhokama qiladi va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga urg‘u beradi. “Biz Qozog‘iston bilan nisbatan keng qamrovli “Mustahkamlangan sheriklik va hamkorlik bitimlarini imzoladik”, Qirg‘iziston bilan muzokaralarni yakunlamoqdamiz va O‘zbekiston bilan muzokaralar jarayonini boshladik. Biz buni mustahkamlashimiz kerak” singari qaydnomalari mazkur tadqiqot uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qildi[6]. Shu bilan bir qatorda maqolada SWOT va Content singari siyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi (YI) o‘rtasidagi munosabatlar ustaqillikdan keyingi davrda bosqichma-bosqich rivojlanib, bugungi kunda ko‘p qirrali va institutsional jihatdan mustahkam hamkorlik tizimiga aylangan[7].


O‘zbekistonning strategik tanlovi – Rossiya, Xitoy va AQSh kabi yirik kuch markazlari bilan muvozanatni saqlash orqali YI bilan hamkorlikni mustahkamlash – tashqi siyosatda yangi vektor sifatida belgilangan. Shu bilan birga, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hisobotlariga ko‘ra EPCA (Enhanced Partnership and Cooperation Agreement) va GSP+ tizimi mamlakat eksportini YI bozorlariga keng imkoniyatlar asosida integratsiyalashiga yordam beradi[8]. Bu iqtisodiy va siyosiy aloqalarni rivojlantirishga, shuningdek, xalqaro maydondagi obro‘ni oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning YI bilan hamkorligi istiqbolli va ko‘p qirrali imkoniyatlarni yaratadi. 2025-yil 4-aprelda Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammiti natijasida bir qator yangi kelishuvlar va loyihalar qabul qilindi. Ushbu kelishuvlar doirasida:

1. Energetika, transport-logistika, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish;
2. Erasmus+ va Horizon Europe dasturlari orqali ta’lim, ilmiy tadqiqot va inson kapitalini rivojlantirish;
3. Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari yaratildi.

Sh. Mirziyoyevning YIga tashrifi davomida olib borilgan muzokaralar natijasida quyidagi davlatlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha kelishuvlar amalga oshirilgan: Bryussel (YI rasmiylari bilan strategik hamkorlik), Germaniya, Fransiya va Italiya kabi asosiy YI a’zo davlatlari bilan iqtisodiy, ta’lim va texnologik sohalarda qo‘shma loyihalar ishlab chiqilgan. Bu tashriflar mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘sini oshirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA Ikki tomonlama munosabatlarning o‘rnatilishi. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida Markaziy Osiyoning boshqa respublikalari qatorida O‘zbekiston ham jahon hamjamiyatidan rasman uzulib qolgan edi. Lekin shuni qayd etish kerakki, SSSR tarqab ketgach, 1989-yil 18-dekabrda Bryusselda imzolangan “O‘zaro savdo va savdo-iqtisodiy hamkorlik” to‘g‘risidagi kelishuvlar Yevropa Iqtisodiy Hamkorligining SSSRning sobiq mustamlakari bilan yo‘lga qo‘yilgan munosabatlariga huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. O‘zbekiston keysida, ushbu shartnoma 1996-yilda imzolangan “Sheriklik va hamkorlik” bitimining imzolanishiga qadar amalda bo‘lgan[9]. O‘zbekiston o‘z suverenititini qo‘lga kiritgandan so‘ng, 1991-yil 31-dekabrda “Uch ikkilarning qo‘shma deklaratsiyasi” bilan Yevropa hamjamiyatlari va ularning 12 ta a’zo davlati O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini e’tirof etdi. 1992-yil 15-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa hamjamiyatlari Komissiyasi o‘rtasida “O‘zaro anglashuv Memorandumi” imzolandi. O‘zbekiston Respublikasining Yevropa hamjamiyatlari qoshidagi Missiyasi 1995- yil 6-maydan e’tiboran Bryussel shahrida o‘z faoliyatini boshladi[6]. Ikki tomonlama muloqot 5 ta qo‘shma organ doirasida olib boriladi: Hamkorlik kengashi, Hamkorlik qo‘mitasi, Parlamentlararo hamkorlik qo‘mitasi, Savdo va investitsiyalar bo‘yicha quyi qo‘mita, Adliya, ichki ishlar va tegishli masalalar bo‘yicha quyi qo‘mita[10].



1-rasm. YI va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik. Infografika. (Muallif ishi)

Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasida imzolangan ko‘p tomonlama bitimlar quyidagilardan iborat:

1. “Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim” — Yevropa hamjamiyatlari va ularning a’zo davlatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida sheriklik o‘rnatish to‘g‘risida. Ushbu hujjat 1996-yil 21-iyunda Italiyaning Florensiya shahrida imzolangan;
2. “Savdo va uning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi oraliq bitim” — 1996-yil 14-noyabrda Bryusselda imzolangan;
3. “To‘qimachilik mahsulotlari savdosi to‘g‘risidagi bitim” — 1993-yil 18-iyunda imzolangan;
4. “Yadro energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi akt” — Yevropa Atom Energetikasi Hamjamiyati va O‘zbekiston Respublikasi hukumati o‘rtasida 2003-yil 6-oktabrda imzolangan hamda 2004-yil 1-avgustdan kuchga kirgan.

Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston munosabatlarida 2025-yilda mutlaqo yangi sahifa ochildi. 2025-yilning 4-aprel sanasida “Markaziy Osiyo-Yevropa Ittifoqi” sammitida Samarqandning mezbonlik qilishi O‘zbekistonning mintaqadagi o‘rnini bir pog‘ona yuqoriga ko‘tardi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning mazkur sammitda so‘zlagan nutqida ham ikki mintaqaning bir necha asrlar davomida o‘zaro munosabatlarni muvaffaqqiyatli amalga oshirib kelayotganini ta‘kidlab, quyidagi fikrlarni ilgari surdi: “Bu hamkorlik ko‘plab tarixiy faktlarga asoslanadi. Jumladan, olti asr ilgari Amir Temur, Movaraunnahr hukmdori, Yevropa monarxlari bilan erkin va xavfsiz savdoni amalga oshirish maqsadida faol munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan”. Shu bilan bir qatorda Prezidentning sammit ishtirokchilariga “Qadrli do‘stlar” deb murojaat qilishi munosabatlarning qanchalik iliq va mushtarakligidan dalolat beradi[11].

Bu tarixiy uchrashuv mintaqalar o‘rtasidagi munosabatlarda yangi sahifa ochib, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Yevropa Ittifoqi mustaqillikdan so‘ng Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ko‘p vektorli hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, bugungi kunda savdo, energetika, raqamli rivojlanish, ta’lim va ekologiya sohalarida o‘zaro aloqalar kengayib bormoqda. Samarqand sammiti ushbu aloqalarni yangi strategik bosqichga olib chiqib, Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi va global integratsiyasiga yangi turtki berdi. Shu bilan bir qatorda Yevropa Kengashi prezidenti Antonio Kosta ham o‘z nutqida bu mintaqalar munosabatlarini istiqbolli ekanini aytib o‘tadi.

Summit yakunida qabul qilingan “Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo” qo‘shma Deklaratsiyasida tomonlar tinchlik, xavfsizlik va demokratiya yo‘lida hamkorlik qilishga sodiqligi, BMT Nizomi hamda barcha davlatlarning mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga xalqaro miqyosda tan olingan chegaralar doirasida hurmat bilan qarash kabi xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga to‘liq rioya etishini ta‘kidladi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi tamoyillariga muvofiq ravishda Ukrainada imkon qadar tezroq adolatli, har tomonlama va barqaror tinchlikka erishish muhimligi ham aytib o‘tildi. YXHT ishtirokchi davlatlari tomonidan tashkilot tamoyillariga amal qilinishi zarurligini qayd etildi. Barcha davlatlar xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid qilishdan tiyilishi, xalqaro gumanitar huquqqa rioya etishi va mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etishi lozimligi yana bir bor tasdiqlandi.

XULOSA

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar mustaqillik davridan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanib, bugungi kunda ko‘p qirrali va institutsional jihatdan mustahkam tizimga aylangan. Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tahlillariga

ko‘ra, ushbu jarayon O‘zbekistonning ochiq va ko‘p vektorli tashqi siyosati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, Yevropa Ittifoqi bilan aloqalarni strategik yo‘nalish sifatida mustahkamlab bormoqda.

O‘zbekistonning tashqi siyosiy vektori, xususan, Rossiya, Xitoy va AQSh kabi yirik kuch markazlari bilan muvozanatni saqlashga qaratilgan strategiyasi, Yevropa Ittifoqini tanlash orqali yangi tashqi siyosiy vektorlarni shakllantirishga imkon berdi. RAND korporatsiyasi tahlillarida ham Markaziy Osiyo davlatlarining, jumladan O‘zbekistonning, ko‘p qutbli geosiyosiy tizimda muvozanatli siyosat yuritishi ularning xalqaro mavqeini kuchaytiruvchi omil sifatida baholanadi. C5+1 platformasi va YI bilan erishilgan kelishuvlar O‘zbekistonning xalqaro maydondagi pozitsiyasini mustahkamladi va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi. Mustahkam institutsional baza, xususan, Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim va Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimi (EPCA) siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar va ijtimoiy-gumanitar hamkorlikni tizimli rivojlantirishga imkon yaratdi.

Yevropa siyosati bo‘yicha tadqiqotlar markazi tahlillariga ko‘ra, EPCA kabi hujjatlar Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasidagi institutsional yaqinlashuvni chuqurlashtirib, savdo va investitsiya oqimlarining kengayishiga zamin yaratadi. YIning GSP+ imtiyozli savdo tizimiga O‘zbekistonning qo‘shilishi esa mamlakat eksporti uchun Yevropa bozorlariga kirishni soddalashtirdi va xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvni tezlashtirdi.

Istiqbol nuqtai nazaridan, Shavkat Mirziyoyevning Yevropa Ittifoqiga tashriflari, 2025-yil Samarqand sammitida imzolangan qo‘shma kelishuvlar va strategik loyihalar O‘zbekiston–YI munosabatlarining yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minlamoqda. Center for European Policy Studies prognozlariga ko‘ra, ushbu jarayon energetika, transport-logistika, raqamli transformatsiya, ta’lim va ilmiy hamkorlik sohalarida yanada kengayadi.

YI bilan izchil hamkorlik, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik, tinchlik va iqtisodiy rivojlanishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, O‘zbekiston–YI munosabatlari nafaqat ikki tomon manfaatlariga xizmat qiladi, balki mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish, barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish va xalqaro maydonda O‘zbekistonning pozitsiyasini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yunusov X. (2007) Yevropa Ittifoqi huquqi. Yangi asr avlodi. Available at https://drive.google.com/file/d/1E8fT_M6D28MEE7Rx1HCWrankOrNLB3QF/view
2. Yunusov X. (2021). Institutional frame of the EU- Uzbekistan relations. The American Journal of Political Science Law and Criminology. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/tajpslc/article/view/6865
3. Melvin N. J (2007). The European Union’s Strategic Role in Central Asia. Center for European Policy Studies. Retrieved from https://cdn.ceps.eu/wp-content/uploads/2009/08/1484.pdf
4. Hennik S. (2019) Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo munosabatlari: kuchliroq hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar. EUCACIS in brief. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/343934765_EU_Central_Asia_relations_New_opportunities_for_a_stronger_partnership_Interview_with_Peter_Burian
5. U-Central Asia Summit (Samarkand, 4 April 2025) - Joint Declaration. Retrieved from https://data.consilium.europa.eu/doc/document/ST-7745-2025-REV-1/en/pdf
6. Partnership and Cooperation Agreement (PCA) came into force on July 1, 1999. http://ec.europa.eu/external_relations/ceeca/pca/pca_uzbekistan.pdf

7. Address by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the first “Central Asia – European Union” summit (2025). https://president.uz/en/lists/view/8023
8. Attitude by Bakhtiyor Mustafayev is Deputy Director of the Institute for Strategic and Regional Studies under the President of the Republic of Uzbekistan. (2025). https://isrs.uz/en/maqolalar/centralnaa-azia-evropejskij-souz-na-puti-k-strategiceskomu-partnerstvu
9. Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги. O‘zbekiston–Yevropa Ittifoqi munosabatlari. – Toshkent, 2023.
10. European Union. Enhanced Partnership and Cooperation Agreement (EPCA). – Brussels, 2022.
11. European Commission. GSP+ Factsheet: Uzbekistan. – Brussels, 2021.
12. World Bank. Uzbekistan Trade and Competitiveness Report. – Washington, 2022.
13. European Parliament. Human Rights and Democracy in Central Asia. – Brussels, 2023.
14. European Commission. EU–Central Asia Strategy. – Brussels, 2019.
15. Rolland N. China’s Eurasian Century? Political and Strategic Implications of the Belt and Road Initiative. – Seattle: NBR, 2017.
16. International Labour Organization (ILO). Monitoring of Labour Standards in Uzbekistan. – Geneva, 2022.
17. Available at https://www.rand.org/about.html
18. Available at https://www.ceps.eu/